



MODERN APPROACHES TO THE PRESERVATION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT: A CASE STUDY OF RITUALS IN THE FERGANA REGION

Azamatjon Omonov

Specialist at the Fergana Regional Center for Pedagogical Excellence

Independent Researcher at Fergana State University

azamatjonomonov239@gmail.com

Science ID: MFR-0726-0189

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: rituals, safeguarding intangible cultural heritage, traditions, customs, field research, folklore, UNESCO, culture, digitization, transformation.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article provides a scientific analysis of the current issues related to the preservation, development, and transmission of intangible cultural heritage to future generations in the Republic of Uzbekistan. Within the system of intangible cultural heritage, the study examines regional differences in rituals practiced among the population of the Fergana Region, depending on the geographical location of communities, the processes of their transformation, and the extent to which these customs and traditions have been preserved to date. Our field research has demonstrated that, in the context of globalization, urbanization, and the rapid development of digital technologies, addressing the challenges associated with preserving national traditions and customs is becoming increasingly important.

Interestingly, during interviews, one can observe that openness, friendliness, the ability to speak clearly and fluently based on one's knowledge and experience, to understand the feelings and thoughts of others, and to explain matters effectively are qualities characteristic of almost all of our elderly people. At the same time, appropriately directing the conversation through stimulating and well-targeted questions encourages people to openly express

their thoughts and ideas that may otherwise remain unspoken, thereby enriching the dialogue and making the interview more meaningful [1, p. 5].

The article primarily employs a comparative analysis of observations obtained through field research, scholarly literature, international documents, and national regulatory and legal documents. It highlights modern mechanisms for safeguarding intangible cultural heritage and preserving national customs and traditions. The findings demonstrate the necessity of strengthening cooperation among government institutions, research organizations, the education system, and local communities in preserving national values. Furthermore, the article provides practical recommendations for digitizing those areas of the Fergana Region where traditional rituals have been preserved without significant transformation, documenting and studying them from a scholarly perspective, and promoting national customs and traditions among young people as a means of preventing their gradual disappearance.

NOMODDIY MADANIY MEROSNI ASRASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: FARG‘ONA VILOYATI MAROSIMLARI MISOLIDA

Azamatjon Omonov

Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi mutaxassisi

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

azamatjonomonov239@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR-0726-0189

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: marosim, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, an‘analar, urf-odatlar, dala tadqiqotlari, folklor, UNESCO, madaniyat, raqamlashtirish, transformatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, nomoddiy madaniy meros tizimida Farg‘ona viloyatidagi marosimlarning aholi o‘rtasida hududlar joylashuviga qarab faqr qilishi, o‘zgarib borish jarayoni va hozirgi kunda ushbu urf-odatlar qay darajada saqlanib qolingani tahlil qilib chiqilgan. Dala tadqiqotlarimiz davomida globallashuv,

urbanizatsiya va raqamli texnologiyalar tendensiyasi rivojlanishi sharoitida milliy an'ana va urf-odatlarimizni saqlash bilan bog'liq muammolarni yoritish tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligi aniqlangan.

Qizig'i shundaki, suxbat chog'ida ochiq ko'ngillilik, dilkashlik, bilganicha, aniq va ravon so'z yuritish, kishi dilidagini topa bilishlik, senga tushuntira olish – deyarli barcha qariyalarimizga xos bo'lgan xislat ekanligini ko'rib qoyil qolasan kishi. Boshqa tomondan esa kishilar dilidagi tugun bo'lib yotgan fikr-o'ylarini ochiq aytishlari uchun qitqlovchi so'rovlar bilan to'g'ri yo'naltirish ham o'zaro suxbatga jon bag'ishlaydi. [1; 5-b.] Maqolada ko'proq dala tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan kuzatuvlar, ilmiy adabiyotlar, xalqaro hujjatlar hamda milliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar qiyosiy tahlil qilinib, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va milliy-urf-odatlarimizni saqlab qolishning zamonaviy mexanizmlari yoritib o'tilgan. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni asrashda davlat organlari, ilmiy muassasalar, ta'lim tizimi va mahalliy jamoatchilikning hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati marosimlarining transformatsiyasiz saqlanib qolingani hududlarini raqamlashtirish, ilmiy tomondan yoritish va yoshlar o'rtasida milliy urf-odatlarimizni unutilib borishiga qarshi choralar va targ'ib qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berib o'tiladi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОХРАНЕНИЮ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ: НА ПРИМЕРЕ ОБРЯДОВ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Азаматжон Омонов

*Специалист Ферганского областного центра педагогического мастерства
независимый исследователь Ферганского государственного университета
azamatjonomonov239@gmail.com*

*Научный идентификационный номер: MFR-0726-0189
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: обряд, охрана нематериального культурного наследия, научный анализ актуальных вопросов традиции, обычаи, полевые исследования, сохранения, развития и передачи	Аннотация: В статье представлен
---	--

фольклор, ЮНЕСКО, цифровизация, трансформация.

культура, нематериального культурного наследия будущим поколениям в Республике Узбекистан. В системе нематериального культурного наследия исследуются региональные различия в проведении обрядов среди населения Ферганской области в зависимости от территориального расположения, процессы их трансформации, а также степень сохранности данных обычаев и традиций в настоящее время. В ходе проведённых нами полевых исследований установлено, что в условиях глобализации, урбанизации и стремительного развития цифровых технологий освещение проблем, связанных с сохранением национальных традиций и обычаев, приобретает всё более важное значение.

Интересно отметить, что в ходе бесед открытость, доброжелательность, умение ясно и свободно выражать свои мысли, опираясь на накопленный жизненный опыт, способность понимать внутреннее состояние собеседника и доступно объяснять свои мысли — качества, характерные практически для всех наших пожилых людей. С другой стороны, правильное направление беседы посредством стимулирующих и целенаправленных вопросов позволяет собеседникам открыто высказывать мысли и идеи, которые зачастую остаются невысказанными, что придаёт взаимному диалогу содержательность и оживлённость [1, с. 5].

В статье преимущественно на основе полевых исследований проведён сравнительный анализ результатов наблюдений, научной литературы, международных документов, а также национальных нормативно-правовых актов. Освещены современные механизмы охраны нематериального культурного наследия и сохранения национальных обычаев и традиций. Результаты исследования показывают необходимость усиления взаимодействия между государственными органами, научными учреждениями, системой образования и местными сообществами в деле сохранения

национальных ценностей. Кроме того, предложены практические рекомендации по цифровизации территорий Ферганской области, где традиционные обряды сохранились без существенной трансформации, их научной документации и изучению, а также по популяризации национальных обычаев и традиций среди молодёжи с целью предотвращения их постепенного забвения.

Kirish. Nomoddiy madaniy meros, marosim ushbu soʻzlar zamirida tarixan birlikda bir butunlikda yashagan xalqlarning oʻzaro munosabatlari koʻz oldimizga keladi. Oʻzbek xalqi oʻzining uzoq tarixi davomida qanchadan-qancha urf-odat va anʼanalariga, hayot taqozosi tufayli vujudga kelgan marosimlarga ega.[2] Milliy anʼana va urf-odatlar asrlar osha yangicha mazmun kasb etadi.[3] Oʻz navbatida zamon va davr talabiga xos anʼanaviy urf-odatlar zamonlar osha yashab, kelgusi avlodlarga yetib boradi. Kishilarning moddiy va maʼnaviy ehtiyojlari qondirilishi bilan ularning soni va sifati oʻsib, oʻzgarib boradi.[4; 5-b.]

Ushbu jarayon insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib, baʼzi hududda oʻzgarishga uchrab, baʼzi hududda esa saqlanib qolib avloddan avlodga ogʻzaki yoki amaliy yoʻl bilan oʻtib kelayotgan madaniy qadriyatlar majmuasi hisoblanadi. Milliy qadriyat va urf-odat oʻz-oʻzidan xalqning tarixiy xotirasi, milliy oʻzligi va maʼnaviy hayotining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Milliy marosimlar, anʼanaviy ijrochilik sanʼati, urf-odat va anʼanalar, xalq hunarmandchiligi, marosim bilan bogʻliq boʻlgan milliy taomlar va uni tayyorlash anʼanalari hamda tabiat va koinot bilan bogʻliq bilim va tajribalar nomoddiy madaniy merosning asosiy yoʻnalishlarini belgilab beradi.[5;6;7.]

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, barcha xalq urf-odatlari, anʼana va marosimlar muayyan tarixiy davrning maxsuli boʻlib, u moddiy turmush sharoitining taʼsiri natijasida paydo boʻlgan; vaqt oʻtgan sari ular tobora mustaxkamlanib, ajdodlardan avlodlarga meros boʻlib oʻtib kelgan. Xalqning toʻy atamasi bilan yuritiladigan barcha anʼanalari, urf-odat va udumlari shaxar va qishloq axolisining kundalik turmushiga singib ketgan boʻlib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini oʻzida aks ettiradi.[8; 3-b]

Koʻrib turibmizki, soʻnggi yillarda dunyo miqyosida globallashtiruv jarayonlari, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida koʻplab milliy anʼanalar marsimlar va urf-odatlarimiz yoʻqolib ketish xavfi ostida qolmoqda.[9;10;11.] Shu sababli dala tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarni bir-biriga taqqoslab tekshirishimiz davomida ushbu jarayonlarni kuzatishga va tahlil qilishga harakat qildik. Ushbu tadqiqotlarimiz davomida Fargʻona viloyati tumanlarning

marosimlari qay darajada bir biriga o'xshash yoki farqli jihatlari mavjud ekanligini yoritib berishga harakat qildik. Bu esa o'zbek to'y va marosimlari har bir shaxar, qishloq o'z yondashuvi usuliga ega ekanligidan dalolat beradi.

Etnografik jihatdan qaralganda, Farg'ona viloyati aholisining kundalik turmushi milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib kelgan.

E'tibor bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, urf-odat an'analar jamiyat hayotining har bir bosqichini tartibga solib turuvchi mexanizm vazifasini bajarib beradi. Ushbu urf-odatlar bola tug'ilishi, ulg'ayishi, nikoh qurishi va hayotdan ko'z yumish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Biz nikoh qurish bilan bog'liq marosimlar misolida oladigan bo'lsak ni

Sovchilik — musulmon an'alariga ko'ra o'g'il bola va qiz bolaning voyaga yetgandan keyin ikkisin birlashtirishdan oldingi marosim.

Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik iplarini bog'lashga da'vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki yo'qsa uch-to'rt kishidan iborat bo'lib, ikki jinsdagi erkak va ayol sovchilar ham bor. Har ikki to'p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovchilar kayvoni, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqil-u fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og'ir, mas'uliyatli. Sovchining gap so'zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo'lmog'i lozim. [12; 5-b.]

Yuz ochdi va kelin salom — nikohdan so'ng kelin tanishtiriladigan va unga jamiyat a'zolari tomonidan duolar aytiladigan marosimlar.

O'zbekistonda nikoh to'yi marosimidan keyingi kuyovning xonodonida yaqin qarindoshlar va qo'ni qo'shnilar ishtirokida o'tkazildigan marosim "yuz ochdi" deyiladi. Marosimda yig'ilganlar o'zlari bilan olib kelgan sovg'alarini kelinga berishadi. Bu marosim O'zbekistonning turli mintaqalarida "Yuz ochdi", "Yuz ko'rsatar", "Yuz ko'rsatar", "Bet ochar" yoki ro'kushon" (tojikcha ro' - yuz, kushon – ochar) kabi nomlar bilan yuritiladi. [13]

Dala taqdiqotlarimiz davomida Farg'ona tumani Chimyon qishlog'i Bo'ston mfy hududida bo'ldik, ushbu hududning kelib chiqish tarixi urf odatlari haqida suxbatlashdik. Axborotchining ma'lumot berishicha ushbu huduga Bo'ston deb nom berilishi Qirg'iziston hududiga yaqin bo'lganligi uchun Qirg'izistondan ko'chib kelib joylashuvi natijasida shu nom berilgan ekan. [14] Nomlanishini tahlil qilib shunday xulosaga keldik, Qirg'izlarning Bo'ston degan urug'i mavjud bo'lib joyning nomlanishi shu urug'ga borib taqalishi mumkin degan fikr paydo bo'ldi. Etnik tarkibi qirg'iz va o'zbek bo'lgani uchun to'y marosimi haqida so'radik, axborotchining ma'lumot berishicha, bularda nikoh to'yi yakuniga yetganidan so'ng kelin uyga kirmasidan avval sut ichirish odatlari mavjud bo'lgan ekan. [15] Bu odatni boshqa bir hududda uchratmagan edik, Bu ham hududga nisbatan farqli jihatini aks ettiradi.

Bu urf-odatlar nafaqat marosimiy xarakterga ega, balki ijtimoiy birdamlik, jamoaviylik va madaniyimizni uzviy bog'liqligini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ham O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni asrash bilan bog'liq dolzarb muammolarni Farg'ona viloyatidagi marosimlar bilan bog'lagan holda aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, hozirgi kunda unutilib borayotgan urf-odatlarimizni globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida saqlab qolish masalalari dala tadqiqotlari asosida tahlil qilinib, samarali mexanizmlariga oid takliflar ishlab chiqiladi.

Metodologiya. Maqolada nomoddiy madaniy merosni asrash va rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy manbalar, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasining ushbu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari tashkil etdi.

Ilmiy izlanish davomida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni etnografik tahlil qilish;
- Dala tadqiqotlari
- qiyosiy-huquqiy tahlil;
- tizimli tahlil;
- umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish usullari.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining nomoddiy madaniy meros tarkibidagi marosim Farg'ona vodiysi misolida o'rganib chiqildi.

Tadqiqot predmeti esa nomoddiy madaniy merosni saqlash jarayonida uchrayotgan muammolar, ularning kelib chiqish omillari va ularni bartaraf etish shartlaridan iborat.

Xozirgi kundagi muammolar sirasiga axborotchining aytishicha, yevropa madaniyati an'analarining kirib kelishi ham sabab bo'lmoqda, mahallalarda ajrimlar soni oshib bormoqda. Nikoh qurilishining muqaddasligi, oilaning muqaddas ekanligi haqida tushunchalar yo'qolib bormoqda. Avvallari oila qurilishidan ilgari qizlarga onalari, buvilari, tomonidan bu haqida tushunchalar berilar edi yoki bo'lmasa yoshi ulug' otaxonlar tomonidan yigitlarga bu haqida tushuncha berib o'tilar edi. Mana shu ajrimlar ham bizda urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni yo'qolib borayotganligini ko'rsatib beryabdi. [16] Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunchilik hujjatlari hamda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va dala tadqiqotlari asosiy manba sifatida o'rganilib tahlil qilindi.

Natija. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishda bir qator tizimli muammolar mavjud.

Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Ayrim hududlarda milliy urf-odat va marosimlarning asta-sekin unutilib borishi.
2. Yosh avlodning ayrim milliy qadriyatlarga qiziqish darajasining past ekanligi.
3. Ushbu soxa bo'yicha ilmiy izlanishlar sonining kamligi.

4. Nomoddiy madaniy meros tashuvchilari – xalq baxshilari, hunarmandlar va folklor jamoalarini va mahallalardagi urf-odatlar va marosimlar o'tkazilishini mahalla nuroniy a'zolari tomonidan nazorat qilinishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishi zarurligi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, nomoddiy madaniy merosni samarali muhofaza qilish uchun davlat organlari, ilmiy muassasalar, oliy ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Muhokama. Urf-odat an'ana va marosimlar har bir o'zbek oilasining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Agar millatni jamiyatni o'z o'rnida saqlamoqchi bo'lsak qadriyat va an'analarimizga sodiq qolishimiz va uni saqlab kelajak avlodga yetkazishimiz kerak. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish faqat tarixiy qadriyatlarni saqlash emas, balki milliy o'zlikni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Biroq tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayrim hududlarda an'anaviy marosimlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va hunarmandchilik sirlarini yosh avlodga yetkazish jarayonida uzilishlar kuzatilmoqda.

Jahonda globallashtiruv jarayonlari avj olgan bir paytda manfaatlar to'qnashuvi hamda milliy o'zlik va madaniy qadriyatlarga qarshi tahdidlar ortib bormoqda. Natijada Yer yuzining turli mintaqalarida yashovchi millatlar, xalqlar lokal madaniyatlari va qadriyatlarini saqlab qolishga tobora ehtiyoj kuchaymoqda. Bu zarurat dunyoda tinchlik, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va barqarorlikni ta'minlab, kelajakka istiqbolli yo'l ochadi. Shu boisdan xalqlarning urf-odatlari, an'analari va milliy qadriyatlarini tadqiq qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganish ustuvor ilmiy masala bo'lib qolmoqda.[17]

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, muzeylar va mahalliy ijro organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, yosh mutaxassislarni tayyorlash va madaniy merosni keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosaga keladigan bo'lsak, tadqiqot natijalari asosida nomoddiy madaniy merosni va ayrim o'zgarib borayotgan marosimlarimizni saqlab qolish uchun quyidagi xulosalarga

kelindi:birinchi o‘rinda nomoddiy madaniy meros milliy o‘zlik va madaniy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi ekanligini,globalashuv sharoitida ayrim marosimlarning transformatsiyalashuvi natijasida yo‘qolib ketish xavfi ostida qolib ketayotganligini,yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda ta‘lim dasturlariga nomoddiy madaniy meros bo‘yicha maxsus mavzularni darsliklarga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi,sababi hozirgi globalashuv tendensiyasi sharoitida milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga yetkazish muhim hisoblanadi.Kelgusida mazkur yo‘nalishda hududlar kesimida izchil tadqiqotlar o‘tkazish, nomoddiy madaniy meros obyektlarini aniqlab, u yerdagi marosimlarning etnolokal jihatdan qay darajada saqlanib qolinganligining raqamli bazasini yaratish ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hayot Ismoilov. O‘zbek to‘ylari T.1992.
2. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. Nomoddiy madaniy merosga oid ilmiy maqolalar va to‘plamlar. 10
3. Smith, L. Uses of Heritage. Routledge. 8
4. Ziyodaxon Rasulova .O ‘zbeklarning nikoh to ‘yigacha bo ‘lgan marosimlari (qalin berish misolida).T.:”Fan va texnologiya”,2009,B-5
5. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO, 2003.1
6. UNESCO. Operational Directives for the Implementation of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO.2
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Nomoddiy madaniy meros milliy ro'yxati. Toshkent.6
8. UNESCO. Culture: 2030 Indicators. Paris: UNESCO.7
9. Mahmud Sattor Toshkent.2007.B. 97
10. https://t.me/ethnology_and_anthropology.03.11.2024
11. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Chimyon qishlog‘i Bo‘ston MFY 2026-yil. Apponova Boqiyaxon 1942-yil 12-yanvarda tug‘ilgan.Pensioner
12. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Chimyon qishlog‘i Bo‘ston MFY 2026-yil.Apponova Boqiyaxon 1942-yil 12-yanvarda tug‘ilgan. Pensioner
13. Dala yozuvlari.Farg‘ona viloyati Quva tumani Qashqar qishlog‘i 2026-yil.Maqsudova Zulhumor Qurbonovna 1970-yil 3-noyabrda tug‘ilgan.MFY xotin-qizlar faoli
14. Yusupova Manzura O‘ktamovna.“XX asr 2-yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o 'zbek va tojiklari an‘anaviy sayillari,bayramlari va tomoshalarining etnohududiy

xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy-etnologik tahlil)” (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati.B.5.